

## TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

**Xo'jakeldiyeva Maxsuda Sindarovna**

*Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumani 28- o'rta maktab*

**Annotatsiya:** *O`shbu maqolada tarix faninini o`qitishda innovatsion metodlardan foydalanish haqida fikrlar berilgan. O'tmish va tarixiy xotira insoniyat tarixining barcha davrlarida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Mazkur maqolada tarix o`qitish metodikasining insoniyat taraqqiyoti bilan mos ravishda rivojlanish xususiyatlari mahalliy va xorijiy manba'lar asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari o`quvchilarga dar o`tish davomida qanday metodlardan foydalanish samara berishi hamda yoshlarda bu fanga qiziqish uyg`otishi to`g`risida mulohazalar berib o`tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarix, o`quvchilar, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, tarixshunoslik, tarix o`qitish metodikasi, tarixiy tafakkur, krossvord metodi*

Tarix - eng yomon o`quvchilarga ega eng yaxshi ustoz.

Indira Gandhi

Ta'lismuassasalarida tarix fanlarini o`qitish uzoq tarixga borib taqaladi. Dunyoning barcha davlatlarida o`rta maxsus ta'lismuassasalaridan keyin ham har bir davlat oliy ta'lismuassasalarida o`z yurti tarixini fan sifatida o`rganish davlat fuqarolarini siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy va marifiy dunyoqarashini shakllantirishning eng asosiy tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Maktablarda ham bu fan o`qitilishi o`quvchilarning o`tmishni o`rganishi va undan xulasalar chiqarishiga sabab bo`lmoqda.

Oliy ta'lismuassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida qanday mutaxassis yo`nalishida tahsil olishidan qa'tiy nazar talabaning yetuk shaxs va faol dunyoqarashga ega fuqaro bo'lib yetishishida, fikrlashning to`g`ri shakllanishida tarix fanlari alohida rol o'ynaydi. Bu masalaga prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ham aloxida ahamiyat berilmoxda. O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30 iyun kuni «O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O`zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to`g`risida»gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror «O`zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o`qitish, ilmiy, ilmiy-ommabop, o`quv-metodik, ma'rifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, ilm-fanning ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish borasida ilmiy, madaniy, ta'lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o`quvchilarida, oliy o`quv muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish maqsadida» qabul qilingan. Aynan shu qaror samarasi sifatida “O`zbekistonning eng yangi tarixi” fanini bakalavr yo`nalishlarga fan sifatida o`tilishini ta'minlash maqsadida darsliklar ishlab chiqilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek. “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix,

buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Bizhech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqlaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk, xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallahsga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz".

Tarix fanini o'qitishda bu fanga doir tarixiy empatiyadan foydalanish mumkin. Bunda maktab o`quvchilarning bu fanni tushunish doirasi kengayadi va ma'lumotlarni eslab qolish darjasini oshib boradi. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Rus tadqiqotchilar asarlarida hikoya usulidan darslarida samarali foydalanish haqida so'z boradi. Ular orasida P.V.Goran, A.A.Vagin, P.S.Leibengrublar alohida qayd etiladi. Hikoya orqali bolalarda empatiya shakllanishiga hissa qo'shish uchun A.A.Vagin tomonidan aytilganidrek turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi. Tarixiy empatiya shakllanishining yana bir usuli, bu shaxsiyatdir. Ta'lim oluvchining qalbida taqdirlar, harakatlar, hayot sharoitlari, tarixiy shaxsning faoliyati haqida tasavvur taixiy shaxsning holati va faoliyatini ijtimoiy hayotdagi odatiy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi<sup>1</sup> Tarixiy empatiya shakllantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- Xayoliy sayohat. Tarix darsi jarayonida o'tmish kishisini ko'rishimiz mumkin bo'lgan narsani tasvirlash talab etiladi. Misol uchun: "Men XVIII asrdagi Xiva xonligiga boraman va.", "keling, Oldin Dishan qal`adan o`tib, Ichan qal'asiga kiraylik..." singari kirish so'zлari yordamida ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan tarixiy davrga boshlab borish va tarixiy sayohat uyushtirish tarixiy empatiya shakllantirish usullaridan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarning ijobiy tomoni shundaki, ta'lim oluvchilar tarixiy tafsilotlarga e'tibor berishadi. Bu esa o`z navbatida o`quvchining yangi mavzuni o'rganishida va yod olishiga katta yordam beradi.

- Xayoliy intervyu. Bir talaba tarixiy shaxsga aylanadi, qolgan ta'lim oluvchilar unga savollar beradi. Beriladigan savollar tarixiy qahramon hayoti va faoliyatiga oid bo'lishi talab etiladi. Ushbu turdag'i topshiriq oldingi vazifani bajarishga qodir bo'lgan dars ishtirokchilarini yaxshi tayyorgarligini talab qiladi. Misol uchun: "Katta saroyda Amir Temur o'tiribdi, siz undan bunday darajaga qanday erishgani, davlatni boshqarishda nimalarga ahamiyat berish lozimligi, Hindistondagi yurishda qanday g'alaba qozonganligini so'rashingiz mumkin." Bu metodda biz xayoliy sayohat va xayoliy intervyu olishni birlashtirib yuboramiz.

- Tugallanmagan jumla usuli – Tarixiy shaxsdan, masalan, Sohibqiron Amir Temurga tegishli bo'lgan iborani davom ettirish so'raladi. ("Biz kim mulki Turon..."). Shunday qilib har qanday tarixiy voqeysalarning tugashini taxmin qilish tajribasini amalga oshirish taklif qilinadi.

- Tarixiy tanlov – "...siz qanday qilardingiz?", "bu vaziyatga boshqacha fikr bildira olish mumkinmi?", kimni yoqlardingiz?", "Siz qaysi toifa tarafidasiz?", va b.». Mazkur savollar asosida ta'lim oluvchi tarixiy hodisalarni o'zida his qilgan holda tarixiy shaxslar o'rnida qaror qabul qilish va tarafni belgilashi mumkin bo'ladi. Chet

<sup>1</sup> <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/download/1862/1722/1909>

ellik metodistlar dars jarayonida quyidagi vazifalardan foydalanishni taklif qilishadi: "Agar siz 15 yoshli Shoh Richard III bo'lsangiz, dehqonlarning qo'zg'olonlarida isyonchilar bilan kurashayotganda nimani his qilasiz? Ularning talablariga rozi bo'larmidingiz?" Ushbu vazifani bajarayotganda talabalar nafaqat tarixiy materiallarni bilishlarini, balki mavjud bilimlarni tahlil qilish orqali ham muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini taqdim etishlari kerak bo'ladi.

Tarix fanini o`qitishda foydalaniladigan metodlardan biri bu – krassvord metodidir. Bolalar faqat ular o'zlari ixtiro qilgan narsalar borasidagina haqiqiy tushunchaga ega bo'ladilar va har safar, biz ularga bir narsani tez o'rgatmoqchi bo'lganimizda, biz ularni narsalarni qaytadan kashf etishdan ushlab qolamiz. (J. Puaje)

Krossvord o'yini XX asrning boshlarida paydo bo'ldi va o'zining qiziqarliligi bilan qisqa vaqt ichida butun dunyoga keng tarqaldi. "Krossvord" so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, kross – "kesib otish" va "word" - "so'z" so'zlarining birikmasidir va u boshqotirma ma'nosini anglatadi. Krossvord tuzish uchun "o'zaro kesishuvchi" katakchalarga so'zlar yozilishi va yozuvda umumiy katakchalarda bir xil harflar qatnashishi kerak. Krossvordlar shakli va hajmi jihatidan juda ko'p turli bo'ladi.

Krossvordning vatanini aniqlash borasida uch davlat baxs yuritadilar. Ular, AQSh, Angliya va JAR davlatlaridir. Krossvordning gazeta sahifasida birinchi marta chop etilishi 1913-yilning 21-dekabriga to'gri keladi va bu kun birinchi gazeta krossvordining tug'ilish kuni sifatida Ginnes rekordlar kitobiga rasman kiritilgan. Bu krossvord AQShda Artur Uinn tomonidan tuzilgan bo'lib, "Hew York world" gazetasida e'lon qilingan. Krossvordga oid muhim pedagogik-psixologik jihatlar ustida to'xtalib o'tamiz.

### **Abuturient, talaba uchun krossvord:**

O'yin xarakteriga ega. Bu xususiyat mavzuni oson egallash imkonini beradi. Chunki insonning ruhiyati mavzuni o'yin orqali qabul qilishga moyildir.

- ❖ Xotirani chiniqtiradi.
- ❖ Fikrlash doirasini kengaytiradi, aqlni peshlaydi.
- ❖ Anglash va fahmlash qobiliyatini rivojlantiradi.
- ❖ So'z boyligini oshiradi.
- ❖ Izlanuvchanlikni vujudga keltiradi.
- ❖ Intellektual salohiyatni kengaytiradi.
- ❖ Mustaqil fikrlash ko'nikmasini hosil qiladi va shakllantiradi.
- ❖ Bo'sh vaqt ni mazmunli o'tkazish imkonini beradi.

**O'qituvchi uchun:** Krossvord o'quv jarayonida o'quvchilarning olgan bilimini aniqlashning barcha nazorat bosqichlarida (joriy, oraliq va yakuniy nazorat bosqichlarida) qo'llanishi mumkin. Krossvorddan o'quvchilarning mustaqil bilim olishini tashkil qilishda foydalanish mumkin. Masalan, o'qituvchi tuzgan krossvordlardan talabalar mustaqil yoki birgalikda ta'lim olishlarida foydalansalar bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha mustaqil ravishda krossvord tuzish topshirig'ini bajarishi ham mustaqil bilim olishning bir turini tashkil etadi. Krossvord barcha fanlar bo'yicha tuzilishi mumkin. Krossvordning yuqorida keltirilgan jihatlari tarix darslarida qo'llanishi uchun to'liq asos bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki oliy ta`lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida qanday mutaxassis yo`nalishida tahsil olishidan qa`tiy nazar talabaning yetuk shaxs va faol dunyoqarashga ega fuqaro bo`lib yetishishida, fikrlashning to`g`ri shakllanishida tarix fanlari alohida rol o`ynaydi. Bundan tashqari bu maktab o`quvchilarning ham kelajak hayotida muhim o`rin tutadi. Tarix fanini maktablarda va oliy ta`lim muassasalarida o`qitishda bu fanga doir tarixiy empatiyadan foydalinish mumkin. Bunda mакtab o`quvchilarning bu fanni tushunish doirasi kengayadi va ma`lumotlarni eslab qolish darajasi oshib boradi. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Shuningdek, o`quvchilar o`zlashtirishi kerak bo`lgan mavzu bo`yicha mustaqil ravishda krossvord tuzish topshirig`ini bajarishi ham mustaqil bilim olishning bir turini tashkil etadi. Krossvord barcha fanlar bo`yicha tuzilishi mumkin. Krossvordning yuqorida keltirilgan jihatlari tarix darslarida qo`llanishi uchun to`liq asos bo`ladi, deb hisoblaymiz. Va shuni ham unutmaylikki “Tarixiy xotirasiz – kelajak yo`q”.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 1.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O`zbekiston, 2016. – B.27.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент:. Шарқ, 1998. – Б. 31
3. К Hamidova; Tarix o`qitish metodikasi. – Toshkent, 2015.
4. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. In Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127).
5. E. Perrot, Effective Teaching. New York: Longman. (1982); B. Laar, R. Blatchford,D.Winkley,G. Badman, R. Howards, Effective Teaching. Oxford: National Primary Center. – P.108.
6. A. Harris, Teaching and Learning in the Effective School. Aldershot: Ashgate, 1999. –P.401.
7. R. Dunne, E.C. Wragg, a. g. e. s. 54 C. Kyriacou, a. g. e. s.45 ;. Laar, R. Blatchford, D.Winkley, G. Badman, R. Howards, - S. 14.
8. Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. Ta`lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida //Uzluksiz ta`lim.-2020.- № 1 (86). — S.5.